

XITOIDA TURIZMNING TURLARI VA XITOIDA TURIZMNING O‘ZIGA XOSLIGI XUSUSIDA

TDIU Xalqaro turizm fakulteti talabasi Saidullayeva Sitora
TDIU Xorijiy tillar kafedrasi o‘qituvchisi Xikmatov Dilshodjon
sitorasaydullayeva968@gmail.com

Annotatsiya: Bugungi kunda turizm sohasi dunyo iqtisodiyotining eng jadal rivojlanayotgan sohalaridan biri. Ushbu maqolada muallif Xitoy davlatining turizm turlari, uning mamlakat miqyosida tutgan o‘rni, turli manbalarda uning talqini va o‘z tahlillarini keltiradi.

Kalit so‘zlar: turizm, ta’lim turizm, ichki va tashqi turizm, sport turizm.

Kirish

Turizm Xitoyda eng katta sanoatdir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (UNWTO) ma’lumotlariga ko‘ra, 2011 yilda mamlakatga 57,6 million xorijlik mehmon kirib, daromadi \$40 milliarddan oshdi. Xitoy dunyodagi eng ko‘p uchinchi sayyoh mamlakatdir, Fransiya va AQSH dan keyin. Mamlakat sanoatini rivojlantirar ekan, turizm asosiy va tez o‘sayotgan iqtisodiy tarmoqlardan biri bo‘ladi. UNWTO hozirgi prognozlariga asoslanib, Xitoy dunyoning eng ko‘p tashrif buyuradigan mamlakatiga aylanishi kutilmoqda.¹

Tarixdan ma’lumki, 1949-yildan boshlab 1976-yilgacha Xitoy chet elliklar uchun yopildi, ya’ni yopiqlik siyosatini qo‘lladi. Bu vaqt oralig‘ida ichki turizm bo‘lsada, ammo tashqi sayyohlik cheklangan edi. Prezident Mao Zedong vafotidan so‘ng, Xitoyning eng mashhur davlat arbobi hamda iqtisodiy islohotchisi Den Xiaoping Xitoyni O‘rta Osiyo uchun ochdi². U turizmning iqtisodiyotdagi pul salohiyatini ko‘ra bildi va uni rivojlantirdi. Xitoy sayohat sanoatini har tomonlama

¹ <https://uz.eferrit.com/xitoyda-turizmni-rivojlantirish/>

² “Big reform in China” Beijing – 2008., 210-page

rivojlantirdi. Va natijada, 1999 yilga kelib mahalliy sayyohlar tomonidan 700 milliondan ziyod sayohatlar amalga oshirildi.

Ta'lim turizmi: Ta'lim turizmi- bu dam olish, dunyo qarashni kengaytirish va ta'lim faoliyatini birlashtirgan turizmning bir turi. Chet tilini o'rganish yoki boshqa sohalarni(marketing, texnologiya, menejmentlik) yoki malaka oshirish maqsadi bo'lishi mumkin. Ta'lim turizmining asosiy maqsadi kasbiy rivojlanish va qiziqishlarni qondirish imkoniyatidir.

Ta'lim turizmini turli ko'rinishda amalga oshirish mumkin ya'ni uning sabablari va maqsadlari turlicha namoyon bo'lishi mumkin. Til kurslari (native speakerlar bilan suhbatda bo'lish har bir til o'rganuvchining orzusida bor), xorijiy ta'lim muassasalarida ta'lim olish yoki malaka oshirish, tarixiy ekskursiyalar , ko'rgazma, konkurslar va muzeylarga tashrif buyurish, seminarlar yoki konferensiyalar yaqqol misol bo'la oladi.

Xitoy ta'lim tiziming o'ziga xosligi va yuqoriligi bilan ajralib turadi. Bu mamlakat xalqaro talabalar uchun eng yaxshi yo'nalish bo'lib kelgan va 2013-yil holatiga ko'ra, Xitoy xalqaro talabalar uchun Osiyodagi eng mashhur davlat bo'lgan va dunyo davlatlari orasida uchinchi o'rinni egallagan. Xitoy hozirda anglofon afrikalik talabalar uchun global miqyosda yetakchi joy va dunyodagi ikkinchi eng katta xalqaro talabalar soniga mezbonlik qiladi. 2020-yilgi Jahon universitetlarining akademik reytingida 200 ta jahonning eng yaxshi 200 taligi ro'yxatida Xitoyning 22 ta universiteti bor edi, umumiy vakillik bo'yicha faqat Amerika Qo'shma Shtatlardan orqada.³

Nima uchun ko'pgina xalqaro talabalar ta'lim olish va uni davom ettirish uchun aynan Xitoy ta'lim tizimini tanlashadi? Bunga bir talay sabablar mavjud. Xitoy ta'lim tizimining afzalliklari uning azron narxlari, hurmatga sazovor madaniyati va amaliyot orqali yodlashga urg'u berilishidir. Ko'p Xitoy universitetlari uchun davomat narxlari boshqa davlatarga qaraganda arzonroq, bunda tashqari yashash

³ https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Xitoyda_ta%CA%BClim_tizimi

ya'ni oziq-ovqat va turar joy narxlari xalqaro talabalar uchun ancha qulay narxlarda, va bu afzalliklar xalqaro talabalarning Xitoy ta'lim tizimiga qiziqishlarini kuchaytiradi. Juda ko'p xalqaro talabalar yuqori o'quv to'lovlari va qimmat yashash xarajalari tufayli chet elda ta'limni davom ettirishga cho'chishadi va ba'zi holatlarda o'qishni yakunlay olmay o'z yurtlariga qaytishga majbur bo'lishadi. Xitoy ta'limi AQSH, Buyuk Britaniya, Avstraliya va Kanada kabi dunyoning boshqa ko'plab yetakchi mamlakatlariga qaraganda arzon baholanadi. Shu sababli Xitoy xalqaro talabalar uchun eng qulay mamlakat. Yana bir afzalliklaridan biri bu talabalar tushlik vaqtida tanaffus olishlari, uyga qaytishlari va oilalari bilan tushlik qilishlari va oliygohga qaytishdan oldin biroz dam olishlari mumkin. Har bir talabalaga dam olish uchun vaqt berish orqali muassasa ularning jismoniy va ruhiy charchab qolmasliklari uchun harakat qiladi. Albatta, bu xalqaro talabalar uchun do'stlar orttirish, til darjalarini kuchaytirish va rivojlantirish uchun qulay imkoniyat.

Har bir narsaning afzalliklari bilan bir qatorda kamchiliklari ham bo'ladi. Xitoy ta'lim tizimi sifatli va qoniqarli bo'lishiga qaramay, uning ham bir qancha kamchiliklari mavjud. Asosan Xorijiy talabalar mzkur davlatga kelganlarida taomlanish borasida muammolarga duch kelar ekan. Misol o'rnida shuni aytish mumkinkiy Xitoy mamlakatida sut mahsulotlarini oddiy savdo do'konlaridan topish qiyin lekin maxsus savdo nuqtalaridan yuqoriga narxda sotib olish mumkin. Bundan tashqari Xitoy oshxonasi o'zoga xos xususiyatlarga ega ya'ni har bir viloyat o'zining ta'miga ega; bir joyda achchiq taomlar, boshqa bir viloyatda shirin yoki nordon ovqatlar birinchi o'rinda bo'lishi mumkin. Anashunday holatda parhezga tayyor bo'lish kerak.

Ishsizlik: Xitoy davlatida chet ellik talabalarning ishlashiga ruxsat berilmaydi. Buning uchun talaba mehnat vizasiga ega bo'lishi kerak. Mamlakat tomonida chet ellik talabaning ishlayotgani aniqlansa, u Xitoydan chiqarib yuborilishi mumkin. Bu muammo, ayniqsa, kam ta'minlangan talabalarning o'z xarajatlarini qoplay olmasligi sababli va oilalari uchun dolzarbdir.


Xulosa qilish davomida bizda Xitoy oliy ma'lumot olishga arziydimi yoki yo'qmi degan savol tug'iladi. Albatta, bu har bir abituriyent yoki talabaning o'ziga bog'liq. O'qishga topshirishdan oldin til o'rganish, madaniyati, ovqatlari va mentalitetiga moslasha oladimi shuni tushunishi kerak. Xitoy ta'limi arzon bo'lsa-da u bepul emas, shuning uchun ham har bir talaba bu qiyinchiliklarni yenga olishiga ishonsa va istiqbollarni Xitoyda ko'ra olsa, qiziqqan universitetiga hujjat topshirishi mumkin.

Ichki va tashqi turizm: Xitoyda turizm Xitoy iqtisodiyotining muhim qismiga aylanib borayotgan rivojlanayotgan sanoatdir. Xitoy 2022-yilda sayohat va turizmning YaIMga qo'shgan hissasi bo'yicha dunyoda ikkinchi o'rinda (814,1 milliard dollar), sayohat va turizmning bandlikka qo'shgan hissasi bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egalladi (2014-yilda 66 million 86 ming ish o'rni). To'g'ridan-to'g'ri, bilvosita va qo'zg'atilgan ta'sirga asoslangan turizm 2013-yilda Xitoy yalpi ichki mahsulotining 9,3 foizini tashkil etadi. 2017-yilda Xitoyning sayohat va turizm sektorining umumiy hissasi YaIMning 11 foizini tashkil etdi. 2018-yilda ichki turizm sektori mamlakat yalpi ichki mahsulotiga qariyb 1,47 trillion dollar hissa qo'shdi. 2016-yilda jahon xalqaro turizm xarajatlarning 21 foizi yoki 261 milliard dollari shu davlatga yo'g'ri keladi.⁴ Ichki turizm bu har qanday mamlakat aholisining o'z mamlakati bo'ylab qilgan sayohatlari. Turizmning bu turning asosiy xususiyati daromadlarni mamlakat hududlari o'rtasida qayta taqsimlanish va milliy iqtisodiyotni rag'batlantirish (kapital mamlakatdan tashqariga chiqarilmaydi, balki uni rivojlantirish uchun ishlatiladi).⁵ 1978-yilda yuz bergan mamlakat iqtisodiyotida bo'lgan o'zgarishlardan so'ng, turizmga alohida e'tibor berildi va natijada yangi sanoat sifatida rivojlandi. Xitoyda iqtisodiyot rivojlanib, xalq daromadlari oshib bordi, mahalliy xalq Xitoy bo'ylab sayohat qilishni o'z ta'tillarining yaxshi o'tkazishning eng yaxshi usuli sifatida ko'rishdi. 1999- yilgi qoidalarga ko'ra, xitoyliklar may, milliy bayramlar va Yangi yilda o'n kunlik ta'til olishgan.

⁴ https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Xitoyda_turizm

⁵ <https://ishvetsov.ru/uz/osnovnye-vidy-vnutrennego-turizma-klassifikacii-turizma-tipy-vidy-i/>

Xitoyning 50 yilligini nishonlash to'liq bir hafta uzaytirilgan birinchi davlat bayrami bo'lgan. Keyingi yillarda 1-may bayrami va Xitoy yangi yili ham to'liq haftalik bayram sifatida nishonlandi. Natijada, ko'plab xitoyliklar dam olish kunlarini an'anaviy usullarini o'zgartira boshladilar, ya'ni uzoq ta'tildan maroqli foydalanish uchun mamlakat bo'ylab sayohatlarga chiqqa boshladilar. Markaziy hukumat Xitoy shaharlariga bayram ta'tillarida tashrif buyurish uchun sharoitlar yaratib berdi. Turizm rivojlanib borar ekan, unga aloqador tarmoqlar ham rag'batlantiriladi. Ichki turizmning rivojlanishi tufayli talab kengaydi, iqtisodiyot sezilarli darajada o'sdi va kam rivojlangan hududlarning rivojlanishiga olib keldi. Shunday qilib, ichki turizm Xitoyning kelajakdagi rivojlanishini rejalashtirishda ustuvor ahamiyatga egadir. Xitoy davlati eng qadimiy davlat va eng ajoyib madaniyatga ega mamlakat hisoblanadi. Xitoy besh ming yillik tarixga ega. Bu uzoq muddat davr ichida qudratli lordlar, imperatorlar va ularning davlatlari yashagan. 1949-yil Xitoy Xalq Respublikasining tashkil topishi va monarxiyani abadiy ag'darish. Xitoy mamlakati tarixida ko'plab sulolalar bo'lgan, ulardan eng mashhuri va o'chmas iz qoldirgani bu Minlar sulolasidir. Bu sulola davrida kapitalizm rivojlana boshlagan, ishlab chiqaradigan sanoat, urbanizatsiya va bozorlar, zamonaviy jamiyat bo'lishdagi qadamlar qo'yilgan. Ko'plab sayyohlar Xitoyning Pekin, Sian, Shanxay, Gongkong shaharlariga tashrif buyurishadi. Pekinda dunyoga mashhur Xitoy devori, Ming maqbaralari, Maoning maqbarasi va shu kabi diqqatga sazovor obidalar joylashgan. Har bir sayyoh bu qadimgi qadamjolarini ko'rmay keta olmaydi. Xitoy ichki va tashqi turizmdan katta daromad oladigan mamlakat sanaladi. Ammo 2019-yilda aniqlangan yangi yuqumli kasallik Covid19 iqtisodiyotga va turizmga o'zining kuchli ta'sirini o'tkazdi. Xalqaro chegaralarning yopilishi va mintaqaviy blokirovkalar mamlakat ichki va tashqi turizmga salbiy ta'sir ko'rsatdi va natijada iqtisodiyotda keskin o'zgarishlarga olib keldi.



6

Xitoy mamlakati sayohat qilish uchun, madaniy hordiq chiqarish uchun eng yaxshi mamlakatlar qatoridan o‘rin egallaydi. U o‘zining alohida hurmatga sazovor madaniyati, tarixi, qadimiy va zamonaviy binolari va eng muhimi xizmat ko‘rsatish servizlarining qulayliyligi hamda sifat darajasi bilan ham chet ellik turistlarning diqqatiga loyiq bo‘la oladi.

Sport turizmi: Sport sayohat qilishning yana bir turgana aylandi va bu tobora ommalashib bormoqda. Bugungi kunda turizm dunyosi haqiqatan ham xilma-xil va erkindir. Sport turizmi juda qiziqarli va sayohat qilish uchun ajoyib turtki bo‘lishi mumkin bo‘lgan amaliyot. Sport turizmi o‘zi nima? Sport turizmi bu sportga yo‘naltirilgan turizm turi. Sport shnavandalari chempionatlar hamda o‘yinlarni tomosha qilish uchun o‘zga mamlakatlarga borishadi. Bugungi kunda sport sayyohligi rivojlanib bormoqda, chunki kichik sayohatlar rejalashtirish oldingi yillarga qaraganda ancha qulay narxlarda. Shuning uchun odamlar o‘yinni tomosha qilish, hordiq chiqarish uchun sport bilan shug‘ullanish uchun bir necha kunga o‘z mamlakatlari bo‘ylab yoki chet mamlakatlarda mehmon bo‘lib kelishadi. Sport turlaru turlicha bo‘lishi mumkin. Misol uchun, qish kunlarida chang‘i uchish uchun tog‘li hududlarga boorish, shaharda marafonlardda ishtirok etish kabilar. Boshqa tomondan olib qaraganda, Futbol Jahon chempionatlarini, Yevropa kubogi kabi

⁶ <https://skift.com/2022/08/18/the-impact-of-a-return-to-chinese-outbound-travel-new-skift-travel-health-index/>

voqealarning o‘z ko‘zlari bilan guvohi bo‘lishni va o‘z kamandalarini qo‘llab quvvatlash uchun sport turizmini amalga oshiradiganlar bor. Tog’ sportiga qiziquvchilar va shug‘ullanuvchilari uchun bordadigan joylar mavjud. Masalan, Naranjo de Bulnes (Ispaniya), bu ajoyib vertikal devorga ega. Yana boshqa ajoyib joylar Amerika Qo‘shma Shtatlarida joylashgan Yosemite yoki Kanadadagi Asgard to‘gi ko‘tarilish uchun ajoyib tosh devor.

Xitoyning an’anaviy sport turi bu hammaga ma’lum “Kung-fu”. Bu o‘zini himoya qilish va tana mashqlari bilan shug‘ullanadigan jang san’ati. Qadimgi an’ana va tarixiy ushbu sport turi xitoyliklar tomonidan terapiya sifatida, jangovor va samarali mehnat uchun ishlab chiqilgan. Dunyoga mashhur aktyor hamda sportchi Bruce Lee ni tanigan va filmlarini miriqib tomosha qilishdan charchamaydigan muhlislar juda ko‘p. Bu aktyor orqali Kung-fu jang turiga qiziqan va o‘rganishga harakat qilib ko‘rganlar juda ko‘p bo‘lsa ajab emas. Bundan tashqari, Osiyo va jahon chempionat o‘yinlar Xitoyda ham o‘tkazilib turiladi. Yuqorida tavsiflaganimizdek, tashrif buyuruvchilar, sayyohlar soni sezilarli darajada oshadi va bu, albatta, iqtisodiyotning o‘sishiga olib keladi.

Xulosa shuki, Xitoy turizm sanoati orqalinkatta daromad ko‘radigan davlat hisoblanadi bu sohani kundan-kunga tobora rivojlantirib bormoqda. Euromonitor International ma’lumotlariga ko‘ra, Osiyo mamlakatalaridagi iqtisodiy o‘sish va yuqori daromadlar Xitoyga 2030-yilga borib dunyoning birinchi raqamli sayyohlik yo‘nalishi bo‘lishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Xayrulla, X., & Shaxzoda, X. (2020). Translations of Liao Zhai stories. *Academicia an international multidisciplinary research journal*, 10(12).
2. Shaxzoda, X. (2020). Lexical Properties Of Pu Songling Novels. *The American journal of social science and education innovations*.
3. Shaxzoda, X. The development of story of the XVI XVII century and the specific style of Pu Songling’s work. *Academicia an international multidisciplinary research journal*. DOI, 10, 2249-7137.